Annotatsiya. Ushbu maqolada jahon bronlash tizimlarining evolyutsion rivojlanish bosqichlari, ularning turizm iqtisodiyotiga ta'siri hamda zamonaviy raqamli transformatsiya jarayonlari tadqiq etilgan. Tadqiqot IMRAD (Introduction, Methods, Results, and Discussion) metodologiyasi asosida amalga oshirilib, turizm axborot texnologiyalari sohasidagi ilmiy bilimlarni tizimlashtirish va yangi nazariy xulosalar ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, XXI asrning uchinchi o'n yilligida bronlash tizimlari turizm sanoatining raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylangan bo'lib, ularning evolyutsion rivojlanish qonuniyatlarini ilmiy jihatdan asoslash zarurati yuzaga kelgan. Tadqiqotning maqsadi jahon bronlash tizimlarining rivojlanish bosqichlarini tizimli tahlil qilish, yetakchi iqtisodchi olimlarning nazariy qarashlarini tanqidiy o'rganish hamda 2024-yil statistik ma'lumotlari asosida jahon mamlakatlarining bronlash tizimlari bozoridagi ulushini baholashdan iborat. Tadqiqotda tarixiy-evolyutsion, qiyosiy, statistik va kontent-tahlil metodlari qo'llanilgan. Ma'lumotlar bazasi sifatida Verified Market Reports, Grand View Research, Mordor Intelligence xalqaro tadqiqot kompaniyalari hisobotlari, UNWTO, WTTC, IATA rasmiy statistik ma'lumotlari hamda Web of Science va Scopus ma'lumotlar bazalarida chop etilgan ilmiy maqolalardan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: bronlash tizimlari, global taqsimot tizimlari (GDS), onlayn sayohat agentliklari (OTA), e-turizm, raqamli transformatsiya, turizm iqtisodiyoti, SABRE, Amadeus, sun'iy intellekt, aqlii turizm, mobil bronlash, bulutli texnologiyalar.

Abstract. This article examines the evolutionary stages of global booking systems, their impact on the tourism economy, and contemporary processes of digital transformation. The study is conducted using the IMRAD (Introduction, Methods, Results, and Discussion) methodology and aims to systematize scientific knowledge in the field of tourism information technologies and develop new theoretical insights. The relevance of the research lies in the fact that in the third decade of the 21st century, booking systems have become a key determinant of competitiveness in the tourism industry, creating a need for a scientifically grounded understanding of their evolutionary development patterns. The purpose of the study is to systematically analyze the stages of development of global booking systems, critically review the theoretical perspectives of leading economists, and assess the market shares of countries in the global booking systems market based on 2024 statistical data. The research employs historical-evolutionary, comparative, statistical, and content analysis methods. The data sources include reports from international research companies such as Verified Market Reports, Grand View Research, and Mordor Intelligence, official statistics from UNWTO, WTTC, and IATA, as well as scholarly articles indexed in the Web of Science and Scopus databases.

Key words: booking systems, global distribution systems (GDS), online travel agencies (OTA), e-tourism, digital transformation, tourism economics, SABRE, Amadeus, artificial intelligence, smart tourism, mobile booking, cloud technologies.

Аннотация. В статье исследуются эволюционные этапы развития мировых систем бронирования, их влияние на экономику туризма, а также современные процессы цифровой трансформации. Исследование выполнено на основе методологии IMRAD (Introduction, Methods, Results, and Discussion) и направлено на систематизацию научных знаний в области информационных технологий туризма и формирование новых теоретических выводов. Актуальность исследования обусловлена тем, что в третьем десятилетии XXI века системы бронирования стали одним из ключевых факторов конкурентоспособности туристической индустрии, что требует научного обоснования закономерностей их эволюционного развития. Цель исследования заключается в системном анализе этапов развития мировых систем бронирования, критическом осмыслении теоретических взглядов ведущих экономистов и оценке доли стран мира на рынке систем бронирования на основе статистических данных за 2024 год. В исследовании использованы историко-эволюционный, сравнительный, статистический и контент-анализ методы. Информационную базу исследования составили отчёты международных аналитических компаний Verified Market Reports, Grand View Research, Mordor Intelligence, официальные статистические данные UNWTO, WTTC, IATA, а также научные публикации, индексируемые в базах данных Web of Science и Scopus.

Ключевые слова: системы бронирования, глобальные распределительные системы (GDS), онлайн-туристические агентства (OTA), е-туризм, цифровая трансформация, экономика туризма, SABRE, Amadeus, искусственный интеллект, умный туризм, мобильное бронирование, облачные технологии.



KIRISH

XXI asrning uchinchi o'n yilligida jahon turizm sanoati misli ko'rilmagan raqamli transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda va ushbu jarayonning markaziy elementi sifatida bronlash tizimlari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy turizm iqtisodiyotida bronlash tizimlari nafaqat texnik vosita, balki butun sanoat tuzilmasini shakllantiruvchi strategik infratuzilma sifatida namoyon bo'lmoqda [1, 2]. 2024-yilda jahon onlayn bronlash tizimlari bozori hajmi 572,78 mlrd AQSh dollariga yetib, ushbu ko'rsatkich yillik 9,9 foiz o'sish sur'atini namoyish etgan [10]. D. Buhalis ta'kidlaganidek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari turizm tashkilotlari va destinatsiyalarning strategiyasi hamda raqobatbardoshligini belgilaydi [1].

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bronlash tizimlarining evolyutsion rivojlanish bosqichlarini nazariy jihatdan asoslash va ularning iqtisodiy samaradorligini empirik ma'lumotlar asosida tahlil qilish zarurati mavjud. Tadqiqotning maqsadi jahon bronlash tizimlarining rivojlanish bosqichlarini tizimli o'rganish, taniqli iqtisodchi olimlarning nazariy qarashlarini tahlil qilish hamda 2024-yil statistik ko'rsatkichlari asosida jahon mamlakatlarining bronlash tizimlari bozoridagi ulushini baholashdan iborat.

Tadqiqot vazifalariga quyidagilar kiradi: bronlash tizimlarining tarixiy rivojlanish bosqichlarini aniqlash, yetakchi iqtisodchi olimlarning nazariy konsepsiyalarini tahlil qilish, 2024-yil statistik ma'lumotlarini mintaqaviy kontekstda o'rganish hamda bronlash tizimlarining kelajak istiqbollarini prognoz qilish. Tadqiqot obyekti sifatida jahon bronlash tizimlari bozori, predmeti sifatida esa ushbu tizimlarning evolyutsion rivojlanish qonuniyatlari va ularning iqtisodiy ko'rsatkichlari tanlangan. P. Sheldon [8] turizm sanoatini "axborotga bog'liq soha" sifatida ta'riflab, bronlash tizimlarining ushbu sohada markaziy o'rin tutishini ilmiy jihatdan asoslagan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bronlash tizimlari bo'yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish natijasida bir nechta asosiy nazariy yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchi yo'nalish – bronlash tizimlarini strategik boshqaruv vositasi sifatida ko'rib chiquvchi yondashuv bo'lib, uning asosiy vakili D. Buhalis hisoblanadi. Uning 2003-yilda chop etilgan "eTourism: Information Technology for Strategic Tourism Management" asari [1] e-turizm sohasining fundamental ishlari qatorida e'tirof etilgan. Buhalis bronlash tizimlarining turizm korxonalari va destinatsiyalarning raqobatbardoshligini ta'minlashdagi strategik rolini nazariy jihatdan asoslab berdi.

2008-yilda R. Law bilan hamkorlikda nashr etilgan maqolada [3] e-turizm tadqiqotlarining 20 yillik rivojlanish jarayoni tahlil qilinib, bronlash tizimlarining transformatsion ta'siri yoritilgan. 2020-yilda Buhalis "Ambient Intelligence Tourism" konsepsiyasini ilgari surdi [2] va turizm texnologiyalarining evolyutsiyasini ICT → e-turizm → aqlli turizm → Ambient Intelligence turizm zanjiri orqali tavsiflab berdi.

Ikkinchi nazariy yo'nalish – bronlash tizimlarini axborot infratuzilmasi sifatida ko'rib chiquvchi yondashuvdir. P. Sheldonning 1997-yilda chop etilgan "Information Technologies for Tourism" asari [8] ushbu yo'nalishning asosiy manbasi hisoblanadi. Sheldon bronlash tizimlarini "turizm sanoatining asab tizimi" sifatida ta'riflab, ularning axborot oqimlarini boshqarishdagi hal qiluvchi rolini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Uchinchi yo'nalish – bronlash tizimlarini ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida o'rganuvchi kompleks yondashuvdir. H. Werthner va S. Kleinning 1999-yilda nashr etilgan "Information Technology and Tourism: A Challenging Relationship" asari [11] mazkur yo'nalishning asosiy nazariy manbasi hisoblanadi. Mualliflar e-turizmni "axborot texnologiyalari va elektron tijorat yechimlarining sayohat va turizm sanoatida tahlili, dizayni, joriy etilishi hamda qo'llanilishi" sifatida ta'riflaganlar.

To'rtinchi yo'nalish – mintaqaviy xususiyatlarni hisobga oluvchi yondashuv bo'lib, R. Law uning asosiy vakili hisoblanadi [3]. Law Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi bronlash tizimlarining o'ziga xos jihatlari tadqiq etib, mobil texnologiyalarning bronlash xulq-atvoriga ta'sirini tahlil qilgan.

Beshinchi yo'nalish – aqlli turizm va sun'iy intellekt kontekstida bronlash tizimlarini o'rganuvchi zamonaviy yondashuvdir. U. Gretzelning 2015-yilda ishlab chiqilgan "Smart Tourism: Foundations and Developments" konsepsiyasi [5] ushbu yo'nalishning nazariy asosini tashkil etadi. Gretzel bronlash tizimlarini "ma'lumotlarga asoslangan aqlli destinatsiya ekotizimining ajralmas qismi" sifatida ta'riflaydi. 2023-yilda D. Buhalis, P. O. Connor va R. Leung tomonidan chop etilgan maqolada [4] aqlli mehmonxona sanoati va tarmoqli destinatsiyalardagi moslashuvchan (agile) biznes ekotizimlari tadqiq qilingan.

Statistik ma'lumotlar nuqtai nazaridan, Verified Market Reports [10], Grand View Research [6], Mordor Intelligence [7] va SkyQuest Technology [9] hisobotlari bronlash tizimlari bozorining hajmi, mintaqaviy taqsimoti hamda o'sish sur'atlari bo'yicha eng ishonchli manbalar sifatida e'tirof etiladi. World Travel & Tourism Council (WTTC) [12] hisobotlari esa turizm sanoatining umumiy iqtisodiy ta'sirini baholashda muhim axborot bazasi vazifasini bajaradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bronlash tizimlari bo'yicha mavjud tadqiqotlar asosan rivojlangan mamlakatlar kontekstida olib borilgan bo'lib, rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan Markaziy Osiyo mintaqasi



yetarlicha o'rganilmagan. Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalarining bronlash tizimlariga integratsiyasi bo'yicha empirik tadqiqotlar hali ham cheklanganligicha qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda kompleks metodologik yondashuv qo'llanilgan bo'lib, u bir qator o'zaro bog'liq metodlarni o'z ichiga oladi. Xususan, tarixiy-evolyutsion tahlil metodi bronlash tizimlarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini aniqlash uchun, qiyosiy tahlil metodi turli mamlakatlar va mintaqalarda bronlash tizimlari ko'rsatkichlarini solishtirish uchun, statistik tahlil metodi 2024-yilga oid empirik ma'lumotlarni qayta ishlash uchun, content-tahlil metodi esa ilmiy adabiyotlar va tahliliy hisobotlarni o'rganish uchun qo'llanildi.

Tadqiqotning ma'lumotlar bazasi sifatida Verified Market Reports [10], SkyQuest Technology [9], Grand View Research [6], Mordor Intelligence [7] kabi xalqaro tadqiqot kompaniyalarining 2024-2025-yillarda chop etilgan hisobotlari, shuningdek UNWTO, WTTC [12], IATA kabi xalqaro tashkilotlarning rasmiy statistik ma'lumotlari hamda Web of Science va Scopus ma'lumotlar bazalarida indekslangan ilmiy maqolalardan foydalanildi.

Nazariy asoslar sifatida D. Buhalis [1, 2, 3, 4], P. Sheldon [8], H. Werthner [11], R. Law [3] va U. Gretzel [5] kabi taniqli iqtisodchi va turizm tadqiqotchilarining e-turizm va bronlash tizimlariga oid ilmiy ishlari tanlab olindi. Ushbu olimlarning nazariy qarashlari tanqidiy tahlil qilinib, ularning asosida muallifning shaxsiy ilmiy pozitsiyasi shakllantirildi.

Statistik ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish va talqin etish maqsadida jadval va grafiklar ishlab chiqildi, mintaqaviy tahlil doirasida esa 5 ta asosiy mintaqqa hamda 15 dan ortiq mamlakat bo'yicha empirik ma'lumotlar jamlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon bronlash tizimlarining rivojlanish tarixini tahlil qilish natijasida beshta asosiy evolyutsion bosqich aniqlanadi. Birinchi bosqich (1960-1975-yillar) – markazlashtirilgan rezervatsiya tizimlari (CRS) davri bo'lib, 1964-yilda American Airlines kompaniyasi IBM bilan hamkorlikda SABRE (Semi-Automated Business Research Environment) tizimini yaratdi. Ushbu tizim soatiga 7000 tagacha bronlash operatsiyasini qayta ishlash imkoniyatiga ega bo'lgan [1]. Mazkur bosqich aviakompaniyalarning ichki bronlash ehtiyojlarini qondirish maqsadida kompyuterlashtirilgan tizimlarning joriy etilishi bilan tavsiflanadi.

Ikkinchi bosqich (1976-1986-yillar) – global taqsimot tizimlari (GDS) shakllanish davri hisoblanadi. 1976-yilda United Airlines (Apollo) va American Airlines (SABRE) o'z rezervatsiya tizimlarini sayyohlik agentliklariga taklif eta boshladi. 1978-yilda AQSh aviatsiya sanoatining deregulatsiya qilinishi natijasida kichik aviakompaniyalar ham ushbu tizimlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldi [3]. 1987-yilda esa Yevropaning yetakchi aviakompaniyalari (Lufthansa, Air France, Iberia, SAS) tomonidan Amadeus tizimi tashkil etildi.

Uchinchi bosqich (1987-1999-yillar) – GDS tizimlarining kengayishi va ularning mehmonxona sektori hamda boshqa turizm xizmatlariga integratsiyalashuvi davridir. Ushbu bosqichda GDS tizimlari mehmonxonalar, avtomobil ijarasi va qo'shimcha turizm xizmatlari bilan bog'lanib, sayyohlik agentliklariga kompleks xizmat paketlarini taklif etish imkoniyatini yaratdi [8].

To'rtinchi bosqich (2000-2019-yillar) – onlayn sayyohlik agentliklari (OTA) va raqamli transformatsiya davri bo'lib, internet texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida Expedia (1996), Booking.com (1996), Travelocity va boshqa OTA platformalari shakllandi. Ushbu bosqich iste'molchilarga to'g'ridan-to'g'ri onlayn bronlash imkoniyatining yaratilishi bilan ajralib turadi [2].

Beshinchi bosqich (2020-yildan hozirgi kungacha) – sun'iy intellekt va aqlli turizm davri sifatida tavsiflanadi. COVID-19 pandemiyasidan keyingi sharoitda kontaktsiz xizmatlar, sun'iy intellektga asoslangan shaxsiylashtirilgan takliflar, real vaqt rejimidagi dinamik narxlash hamda bulutli texnologiyalar asosidagi yechimlar keng joriy etilmoqda [4, 5].

1-jadval. Jahon bronlash tizimlarining evolyutsion rivojlanish bosqichlari

Bosqich	Davr	Asosiy xususiyatlar	Muhim voqealar
I	1960-1975-y	CRS (Markazlashtirilgan rezervatsiya tizimlari) davri. Aviakompaniyalar ichki bronlash tizimlari.	1964: SABRE tizimi yaratildi (American Airlines + IBM)
II	1976-1986-y	GDS shakllanishi. Sayyohlik agentliklariga kirish. AQSh aviatsiya deregulatsiyasi.	1976: SABRE va Apollo agentliklarga sotila boshladi. 1978: AQSh deregulatsiyasi



III	1987-1999-y	GDS kengayishi. Mehmonxonalar, avtomobil ijarasi integratsiyasi. Yevropa GDS tizimlari.	1987: Amadeus yaratildi. 1990: Worldspan tashkil etildi. 1992: Galileo mustaqillashdi
IV	2000-2019-y	OTA va raqamli transformatsiya. Internet bronlash. Mobil texnologiyalar.	2000: SABRE ajralishi. 2006: Travelport tashkil etildi. Expedia, Booking.com yetakchilik
V	2020-hozir	AI va aqlli turizm. Kontaktsiz xizmatlar. Bulutli yechimlar. Personalizatsiya.	2020: COVID-19 tezlashtirdi. 2024: AI chatbotlar 48% qo'llash darajasi

Dimitrios Buhalis (Bournemouth universiteti, Buyuk Britaniya) e-turizm sohasining asoschisi sifatida tan olingan bo'lib, uning 2003-yilda chop etilgan "eTourism: Information Technology for Strategic Tourism Management" asari [1] mazkur yo'nalishdagi fundamental ishlardan hisoblanadi. Buhalis bronlash tizimlarini "turizm korxonalari va destinatsiyalarning raqobatbardoshligini belgilovchi strategik vosita" sifatida ta'riflaydi. U 2020-yilda "Ambient Intelligence Tourism" konsepsiyasini ilgari surdi [2] va turizm texnologiyalarining evolyutsiyasini ICT → e-turizm → aqlli turizm → Ambient Intelligence turizm zanjiri orqali izohladi. Buhalisning yondashuvi bronlash tizimlarini nafaqat texnik infratuzilma, balki butun turizm ekotizimini shakllantiruvchi strategik element sifatida talqin etishi bilan ahamiyatlidir. Biroq ushbu nazariya rivojlanayotgan mamlakatlar kontekstida yetarlicha empirik sinovdan o'tkazilmagan hamda mahalliy bozorlarning o'ziga xos xususiyatlarini to'liq hisobga olmaydi.

Pauline Sheldon (Gavayi universiteti, AQSh) 1997-yilda "Information Technologies for Tourism" nomli kitobini nashr ettirdi [8] va bu asar turizm axborot texnologiyalari sohasidagi ilk fundamental ishlardan biri bo'ldi. Sheldon bronlash tizimlarini "turizm sanoatining asab tizimi" deb ta'riflab, ularning axborot oqimlarini boshqarishdagi markaziy rolini ta'kidladi. U turizm korxonalari va destinatsiyalar uchun axborot tizimlari arxitekturasining nazariy asoslarini ishlab chiqdi. Sheldonning "asab tizimi" metaforasi bronlash tizimlarining integratsion funksiyasini aniq ifodalaydi. Biroq ushbu yondashuv tizimlarning iste'molchi xulq-atvoriga ta'sirini yetarlicha qamrab olmaydi hamda foydalanuvchi tajribasining psixologik jihatlarini chetlab o'tadi.

Hannes Werthner (Vena texnika universiteti, Avstriya) va Stefan Klein 1999-yilda "Information Technology and Tourism: A Challenging Relationship" asarini nashr etdilar [11]. Werthner e-turizmni "IT va elektron tijorat yechimlarining sayohat va turizm sanoatida tahlili, dizayni, joriy etilishi va qo'llanilishi, shuningdek, tegishli texnik va iqtisodiy jarayonlar hamda bozor tuzilmalarining tahlili" sifatida ta'riflaydi. U bronlash tizimlarining ikki tomonlama tabiatini – bir tomondan biznes vositasi, ikkinchi tomondan esa ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida – asoslab berdi. Werthnerning kompleks yondashuvi bronlash tizimlarini ko'p qirrali fenomen sifatida tushunish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, ushbu ta'rif texnik yo'nalishga haddan tashqari urg'u berib, iste'molchilar nuqtai nazaridan bronlash jarayonining emotsional qiymatini yetarlicha aks ettirmaydi.

Rob Law (Gonkong politexnika universiteti, Xitoy) D. Buhalis bilan hamkorlikda 2008-yilda e-turizm tadqiqotlarining holatini tahlil qilgan muhim ilmiy maqolani e'lon qildi [3]. R. Law bronlash tizimlarini "turizm iste'molchilari va tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro ta'sirni osonlashtiruvchi raqamli platformalar" sifatida izohladi hamda mobil texnologiyalarning bronlash xulq-atvoriga ta'sirini o'rgandi. U Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi bronlash tizimlarining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qildi. Lawning mintaqaviy yondashuvi jahon bronlash tizimlarining mahalliy kontekstlarda qanday moslashishini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Biroq uning tadqiqotlari ko'proq texnologik determinizmga moyil bo'lib, ijtimoiy-madaniy omillarni yetarlicha hisobga olmaydi.

Ulrike Gretzel (Janubiy Kaliforniya universiteti, AQSh) aqlli turizm va sun'iy intellektning bronlash tizimlariga ta'sirini tadqiq etadi. U 2015-yilda "Smart Tourism: Foundations and Developments" konsepsiyasini ishlab chiqdi [5] va bronlash tizimlarini "ma'lumotlarga asoslangan aqlli destinatsiya ekotizimining ajralmas qismi" sifatida ta'rifladi. Gretzel sun'iy intellektga asoslangan personalizatsiya va prognozli tahlilning bronlash tizimlaridagi rolini chuqur o'rganmoqda. Uning kelajakka yo'naltirilgan yondashuvi bronlash tizimlarining rivojlanish istiqbollarini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, AI texnologiyalarining etik va maxfiylik bilan bog'liq masalalari uning ishlarida yetarlicha yoritilmagan.

Yuqoridagi nazariy qarashlarni sintez qilgan holda, muallif bronlash tizimlariga quyidagi ta'rifni taklif etadi: "Bronlash tizimlari – bu turizm xizmatlari taklifi va talab o'rtasidagi real vaqt rejimidagi integratsiyani ta'minlovchi, iste'molchi tajribasini personalizatsiya qiluvchi, ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlovchi hamda turizm ekotizimining barcha ishtirokchilarini yagona raqamli platformaga birlashtiruvchi strategik axborot-kommunikatsiya infratuzilmasidir." Ushbu ta'rif bronlash tizimlarining texnik, iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalarini uyg'unlashtirib, ularning zamonaviy turizm iqtisodiyotidagi ko'p qirrali rolini aks ettiradi.

2024-yil statistik ma'lumotlarining tahlili jahon bronlash tizimlari bozorining jadal rivojlanayotganini ko'rsatmoqda. Verified Market Reports ma'lumotlariga ko'ra [10], onlayn bronlash tizimlari bozori 2024-yilda 4,69 milliard AQSh dollariga baholangan bo'lib, 2033-yilgacha yillik o'rtacha 10,5 foiz o'sish sur'ati bilan 11,52



milliard dollarga yetishi prognoz qilinmoqda. Onlayn sayohat bronlash xizmatlari bozori esa 2024-yilda 572,78 milliard AQSh dollariga yetgan [9]. Grand View Research hisobotiga ko'ra [6], onlayn sayohat agentliklari bozori hajmi 2024-yilda 612,95 milliard AQSh dollarini tashkil etgan. Mintaqaviy taqsimot nuqtai nazaridan Shimoliy Amerika yetakchi o'rinni egallab, umumiy daromadning 40 foizini shakllantiradi, undan keyin Osiyo-Tinch okeani (25 foiz), Yevropa (20 foiz), Lotin Amerikasi (8 foiz) hamda Yaqin Sharq va Afrika (7 foiz) mintaqalari joylashadi [10]. Eng tez o'sayotgan hudud sifatida Osiyo-Tinch okeani mintaqasi ajralib turib, bu yerda yillik o'sish sur'ati 12,62 foizni tashkil etmoqda [7].

2-jadval. Jahon onlayn bronlash tizimlari bozorining mintaqaviy taqsimoti (2024-yil ma'lumotlari asosida)

Mintaqa	Bozor ulushi (%)	Hajmi (mlrd \$)	CAGR (%)	Trend
Shimoliy Amerika	40,0	229,1	8,6	Barqaror
Yevropa	31,9	182,6	9,2	O'sish
Osiyo-Tinch okeani	25,0	143,2	12,6	Tez o'sish
Lotin Amerikasi	8,0	45,8	10,1	O'sish
Yaqin Sharq va Afrika	7,0	40,1	9,8	O'sish

Manba: [6, 7, 9, 10] asosida muallif tomonidan tuzilgan

Mamlakatlar kesimida tahlil qilganda, AQSh jahon bronlash tizimlari bozorida yetakchi o'rinni egallaydi – 21,8 foiz ulush bilan [10]. 2024-yilda AQShda 72 foiz katta yoshdagi aholi sayohatlarini onlayn bronlash orqali amalga oshirgan, bu ko'rsatkich an'anaviy sayyohlik agentliklaridan foydalanuvchilardan (12 foiz) olti marta yuqori. Booking Holdings kompaniyasi 2024-yilda 24 milliard dollar daromad oldi va 1,15 milliarddan ortiq mehmonxona kechalari, avtomobil ijarasi kunlari va aviachiptalar bo'yicha xizmat ko'rsatdi [6]. Yevropa bozorida Germaniya, Buyuk Britaniya va Fransiya yetakchi mamlakatlar hisoblanadi. 2024-yilda Yevropa onlayn sayohat agentliklari bozorining 31,87 foizini tashkil etdi [6]. Osiyo-Tinch okeani mintaqasida Xitoy, Hindiston, Yaponiya va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari eng katta bozorlarga ega. Hindistonda OTA bozori 15,6 milliard dollarga baholangan va 2029-yilgacha 28,4 milliard dollarga yetishi kutilmoqda. Singapurda sayyohlarning 78 foizi OTA platformalaridan foydalanadi [7].


3-jadval. Tanlangan mamlakatlar bo'yicha bronlash tizimlari ko'rsatkichlari (2024-yil ma'lumotlari asosida)

Mamlakat	OTA bozori (mlrd \$)	Onlayn bronlash (%)	Mobil bronlash (%)	OTA penetratsiyasi	AI qo'llash
AQSh	125,4	72	52	Yuqori	48%
Xitoy	89,2	68	71	44%	52%
Buyuk Britaniya	42,8	76	58	Yuqori	45%
Germaniya	38,5	74	49	Yuqori	41%
Hindiston	15,6	53	68	53%	38%
Yaponiya	2,9	65	42	37%	55%
Singapur	7,0	82	74	78%	61%
Braziliya	12,4	58	62	O'rtacha	32%


Manba: [6, 7, 9, 10, 12] asosida muallif tomonidan tuzilgan



Jahon onlayn bronlash tizimlari bozorining mintaqaviy taqsimoti, 2024-yil



Bronlash tizimlari bozorining o'sish sur'ati (CAGR 2024-2032 prognozi)



1-rasm. Jahon bronlash tizimlari bozorining mintaqaviy taqsimoti va o'sish sur'atlari (2024-yil ma'lumotlari asosida)

Bronlash tizimlari turlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, bulutga asoslangan yechimlar bozorining 70 foizini, mahalliy serverli yechimlar esa 30 foizini tashkil etadi [10]. Mobil ilovalar orqali bronlash ulushi 2024-yilda 61,28 foizga yetdi va bu ko'rsatkich yillik 13,24 foiz o'sish sur'atini ko'rsatmoqda [7]. Uchinchi tomon OTA platformalari onlayn joylashuv bronlash bozorining 72,33 foizini nazorat qiladi. Yetakchi GDS provayderlari – Amadeus (global bozorning 37 foizi), Sabre (35 foiz) va Travelport (25 foiz) – birgalikda bozorning 97 foizini egallaydi [6]. 2024-yilda AI texnologiyalarini qo'llash bo'yicha statistika shuni ko'rsatadiki, sayyohlarning 48 foizi sayohat rejalashtirish uchun AI chatbotlaridan foydalanishga tayyor, turizm rahbarlarining 97,8 foizi AI ning kelgusi 1-5 yil ichida sohaga ta'sir ko'rsatishiga ishonadi [5, 12].

Tadqiqot natijalarini tahlil qilib, quyidagi muhim xulosalarga kelish mumkin. Birinchidan, bronlash tizimlarining evolyutsiyasi aniq belgilangan beshta bosqichdan o'tgan va har bir bosqich texnologik innovatsiyalar bilan bog'liq bo'lgan [1, 3]. CRS dan GDS ga, undan OTA ga va hozirgi AI-ga asoslangan tizimlarga o'tish jarayoni turizm sanoatining raqamli transformatsiyasini yaqqol aks ettiradi. Ikkinchidan, iqtisodchi olimlarning nazariy qarashlari bronlash tizimlarini turli nuqtai nazarlardan tahlil qilishga imkon beradi – texnik infratuzilma [8], strategik vosita [1], ijtimoiy-iqtisodiy hodisa [11], mintaqaviy fenomen [3] va kelajak texnologiyasi [5] sifatida. Bu ko'p qirrali yondashuv bronlash tizimlarining murakkab tabiatini to'liq tushunish uchun zarur.

Uchinchidan, 2024-yil statistik ma'lumotlari [9, 10] bronlash tizimlari bozorining geografik notekis taqsimlanganligini ko'rsatadi – Shimoliy Amerika va Yevropa bozorining asosiy qismini egallaydi, lekin Osiyo-Tinch okeani mintaqasi eng tez o'sish sur'atiga ega [7]. Bu holat rivojlanayotgan mamlakatlar uchun bronlash tizimlari sohasida o'sish imkoniyatlarini ko'rsatadi. To'rtinchidan, mobil texnologiyalar va AI ning bronlash tizimlariga integratsiyasi sohaning kelajak rivojlanish yo'nalishini belgilaydi [2, 4, 5]. 2024-yilda mobil bronlash ulushining 61 foizdan oshishi va AI texnologiyalariga bo'lgan qiziqishning yuqoriligi bu tendentsiyani tasdiqlaydi. Beshinchidan, COVID-19 pandemiyasi bronlash tizimlarining rivojlanishini tezlashtirdi – kontaktsiz xizmatlar, real vaqt rejimidagi bronlash va moslashuvchan bekor qilish siyosatlari zamonaviy tizimlarning ajralmas qismiga aylandi [4].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jahon bronlash tizimlari 1960-yillardan boshlab CRS, GDS, OTA va aqlli turizm bosqichlarini bosib o'tib, bugungi kunda turizm sanoatining ajralmas qismiga aylandi [1, 3]. 2024-yilda onlayn bronlash tizimlari bozori hajmi 572,78 milliard AQSh dollariga yetdi va 2032-yilgacha ushbu ko'rsatkich 1,2 trillion dollarga yetishi prognoz qilinmoqda [9, 10]. Shimoliy Amerika bozorda yetakchi o'rinni egallab (40 foiz), eng yuqori o'sish sur'atlari Osiyo-Tinch okeani mintaqasida kuzatilmoqda (12,6 foiz CAGR) [6, 7].

D. Buhalis [1, 2], P. Sheldon [8], H. Werthner [11], R. Law [3] va U. Gretzel [5] kabi olimlarning nazariy qarashlari bronlash tizimlarini strategik infratuzilma, axborot tarmog'i hamda aqlli turizm ekotizimining ajralmas qismi sifatida talqin qilish imkonini beradi. Sun'iy intellekt texnologiyalari, mobil ilovalar va bulutli yechimlar



bronlash tizimlarining kelajakdagi rivojlanishini belgilab bermoqda: xususan, 2024-yilda sayyohlarning 48 foizi AI asosidagi sayohatni rejalashtirish xizmatlaridan foydalanishga tayyor ekanligini bildirgan [5, 12].

O'zbekiston va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun bronlash tizimlari sohasidagi global tendensiyalarni chuqur o'rganish va ularni mahalliy bozor sharoitlariga moslashtirilgan innovatsion yechimlar orqali joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Buhalis D. (2003). eTourism: Information Technology for Strategic Tourism Management. London: Pearson. 408 p.
2. Buhalis D. (2020). Technology in tourism-from information communication technologies to eTourism and smart tourism towards ambient intelligence tourism: a perspective article // Tourism Review. Vol. 75(1). P. 267-272.
3. Buhalis D., & Law R. (2008). Progress in information technology and tourism management: 20 years on and 10 years after the Internet The state of eTourism research // Tourism Management. Vol. 29(4). P. 609-623.
4. Buhalis D., O. Connor P., & Leung R. (2023). Smart hospitality: from smart cities and smart tourism towards agile business ecosystems in networked destinations // International Journal of Contemporary Hospitality Management. Vol. 35(1). P. 1-25.
5. Gretzel U., Sigala M., Xiang Z., & Koo C. (2015). Smart tourism: foundations and developments // Electronic Markets. Vol. 25(3). P. 179-188.
6. Grand View Research. (2024). Online Travel Agencies Market Size, Share & Trends Analysis Report, 2024-2030. San Francisco: GVR. 150 p.
7. Mordor Intelligence. (2024). Online Accommodation Booking Market Size & Share Analysis Growth Trends & Forecasts (2024-2029). Hyderabad: MI. 120 p.
8. Sheldon P. (1997). Information Technologies for Tourism. Oxford: CAB International. 224 p.
9. SkyQuest Technology. (2024). Online Travel Booking Services Market Size, Share & Growth Report 2024-2032. Dallas: SQT. 180 p.
10. Verified Market Reports. (2024). Online Booking Systems Market Size, Evaluation, Research & Forecast 2024-2033. New York: VMR. 200 p.
11. Werthner H., & Klein S. (1999). Information Technology and Tourism: A Challenging Relationship. New York: Springer. 323 p.
12. World Travel & Tourism Council. (2024). Economic Impact Trends Report 2024. London: WTTC. 48 p.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>